

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 1



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-1>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Хамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)


Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

20. Буриева Умида Абдумуминовна НЕПОЛНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ИХ СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В ДИСКУРСИВНОМ АНАЛИЗЕ.....	117
21. Хулкар Ҳамроева, Озода Мусаева БАДИИЙ МАТННИНГ ЛИНГВОПОЭТИК ТАҲЛИЛИ (Эрназар Рўзиматов асарлари мисолида).....	126
22. Умида Хушвақтова ЛИНГВОПОЭТИКА – ЯХЛИТ ФИЛОЛОГИК ТАҲЛИЛ МАЙДОНИ (Зулфия Куролбой қизи асарлари мисолида).....	134
23. Hayitov Shavkat Ahmadovich, Nasriddinova Shaxruza Nuriddinovna SHAYXIMBEK SUHAYLIY ALISHER NAVOIY TALQINIDA.....	142
24. Nasimova Muattar Xasanovna O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA VAZIFAGA ASOSLANGAN TA’LIM TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.....	152
25. Oripov Ne‘matilla Cho‘liyevich HAYKALTAROSHLIK SAN’ATIDA QADRIYATLAR IFODASINI IDROK ETILISHI.....	158
26. Gulyamova Shahnoza Qahramonovna, Xudoyberdiyeva Filura Ziyadinovna NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA EVFEMIZMLARNING AHAMIYAT.....	162
27. Petrosyan Nelya Valerevna KOMMUNIKATIV USUL ORQALI TANQIDIY FIKRLASHNI O‘RGATISH.....	167
28. Muhiddinova Gulchiroy Sadulloevna YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	174
29. Abduraxmonova Nilufar, Latipova Gulasal KOMPYUTER LEKSIKOGRAFIYASIDA KORPUS TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA.....	178
30. Меликова Мартаба Нумоновна ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ИДЕАЛЫ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АЛИШЕРА НАВОИ.....	185
31. Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi HUNARMANDLAR NUTQINING LINGVOMADANIY TAHLILI.....	193
32. Alimova Sevara Farkhadovna COLOR IDENTITY IN TRADITIONAL CHINESE CULTURE.....	200
33. Jo‘raxolova Bahora Qurbonboyevna NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARDA KONTSEPTUAL METAFORA TURLARINING TASNIFI.....	204



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART


Hayitov Shavkat Ahmadovich,

Buxoro davlat universiteti,
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori
filologiya fanlari doktori (DSc),
E-mail: s.a.xayitov@buxdu.uz

Nasriddinova Shaxruza Nuriddinovna,

BuxDU filologiya va tillarni o‘qitish
(o‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

SHAYXIMBEK SUHAYLIY ALISHER NAVOIY TALQINIDA

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Shayximbek Suhayliy o‘zbek va fors-tojik tillarida nozik asarlar yaratgan iste‘dodli shoirdir. U o‘zining nafis lirik she‘riyati, noyob talanti, hamida axloqi, maniyatparvarligi, ibratli ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan zamondoshlari o‘rtasida katta nufusga ega bo‘lgan. Bir qator badiiy, tarixiy, tarixiy-adabiy tazkira, manoqib asarlar va lug‘atlarda Shayxim Suhayliy hayoti va adabiy merosiga doir muhim mulohazalar bildirilgan. Iste‘dodli shoir ijodiga qiziqish unga munosabat bildirish Shayxim Suhayliy hayotligidayoq boshlangan. Uning ijodiyoti o‘z davridayoq adabiyot ahllarining yuksak bahosiga sazovor bo‘lgan. Alisher Navoiy Shayxim Suhayliyni Sharq mumtoz she‘riyatining Shayx Muslihiddin Sa‘diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Salmon Sovajiy, Kamol Xo‘jandiy kabi ulug‘ namoyandalari bilan bir qatorga qo‘yadi.

Maqolada XV asrning ikkinchi yarmida forsiy va turkiy tilda qalam tebratgan iste‘dodli shoir Shayximbek Suhayliyning she‘riyati, axloqiy fazilatları hamda ijtimoiy faoliyati haqida mulohaza yuritiladi. Alisher Navoiyning Shayximbek Suhayliy bilan insoniy va ijodiy munosabatlariga e‘tibor qaratiladi. Buyuk mutafakkirning “Majolisun-nafois” tazkirasi, “Badoyi‘ul-bidoya” devoni debochasi, “Layli va Majnun” dostoni, “Favoyidul-kibar” devoni tarkibidagi “Soqiynoma”si Shayximbek Suhayliy shaxsiyati va ma‘naviy merosini o‘rganishda nodir manba ekanligi asoslab beriladi.

Tayanch tushunchalar: XV asr, Hirot, Xuroson, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Suhayliy, she‘r, shoir, muhrdor, vazir, “Badoyi‘ul-bidoya”, “Xamsatul-mutahayyirin”, “Favoyidul-kibar”, “Soqiynoma”, “Layli va Majnun”, “Mahbubul-qulub”, Sa‘diy Sheroziy, “Bo‘ston”, “Guliston”, Xusrav Dehlaviy, Salmon Sovajiy, Kamol Isfahoniy, Xoja Kamol, XII asr, Bobur, “Boburnoma”, Jaloliddin Rumi, yori aziz, forsiydisor, turkiyshior, shukur, zuhd, zohid, tasbih, tashbih, istiora, ishq, oshiq, fasl, bob, tanbeh.

Хайитов Шавкат Ахмадович,

Бухарский государственный университет,
Профессор кафедры узбекского языка и литературы
доктор филологических наук (DSc),
Электронная почта: s.a.khayitov@buxdu.uz

Насриддинова Шахруза Нуриддиновна,
Преподавание филологии и языков в БГУ (узбекский
язык) учащийся 3 курса

ШЕЙХИМБЕК СУХАЙЛЫ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ АЛИШЕРА НАВОЯ

АННОТАЦИЯ

Шайхимбек Сухайли – талантливый поэт, создавший тонкие произведения на узбекском и персидско-таджикском языках. Большую популярность среди современников он завоевал благодаря своей изящной лирической поэзии, уникальному таланту, нравственности, образцовой общественной и политической деятельности. В ряде художественных, исторических, историко-литературных очерков, прекрасных произведениях и словарях были выражены важные замечания о жизни и литературном наследии шейха Сухайли. Интерес к творчеству талантливого поэта начался еще при жизни шейха Сухайли. Его творчество было высоко оценено литераторами своего времени. Алишер Навои ставит Шейхима Сухайли в один ряд с такими великими представителями восточной классической поэзии, как Шейх Муслихиддин Саади, Амир Хусрав Дехлави, Салман Соваджи, Камал Ходжанди.

В статье рассматриваются поэзия, нравственные качества и общественная деятельность талантливого поэта Шайхимбека Сухайли, писавшего во второй половине XV века на персидском и турецком языках. Уделено внимание человеческим и творческим связям Алишера Навои с Шайхимбеком Сухайли. Произведение «Маджolis ун-нафаис» великого мыслителя, предисловие к книге «Бадои ул-бидоя», поэма «Лейли и Меджнун», «Сокинома» в составе книги «Фавоид ул-кибар» являются редкими источниками для изучения личности и духовного наследия Шайхимбека Сухайли.

Ключевые слова: XV век, Герат, Хорасан, Хусейн Бойкара, Алишер Навои, Абдурахман Джамии, Сухайли, поэма, поэт, министр, «Бадаи ул-бидоя», «Хамсатул-мутахайирин», «Фавоид ул-кибар», «Сокинома», «Лейли и Меджнун», «Махбуб ул-кулуб», Сади Ширози, «Бостон», «Гулистан», Хусрав Дехлави, Салман Соваджи, Камаль Исфохани, Ходжа Камаль, XII век, Бабур, «Бабурнама», Джалалиддин Руми, дорогой, фарсийдисар, туркишиор, шукр, зухад, захид, тасбих, ташбих, метафора, любовь, любовник, время года, глава, упрек.

Hayitov Shavkat Ahmadovich,

Bukhara State University,

Professor of the Department of Uzbek Language and Literature

Doctor of Philology (DSc),

E-mail: s.a.khayitov@buxdu.uz

Nasriddinova Shakhruza Nuriddinova,

Teaching philology and languages at Bukhara State

University (Uzbek language) 3rd level student

SHEIKHIMBEK SUHAILY IN THE INTERPRETATION OF ALISHER NAVOY

ANNOTATION

Shaykhimbek Suhaily is a talented poet who created delicate works in Uzbek and Persian-Tajik languages. He gained great popularity among his contemporaries with his elegant lyrical poetry, unique talent, morals, exemplary social and political activities. In a number of artistic, historical, historical-literary essays, excellent works and dictionaries, important comments on the life and literary heritage of Sheikh Suhayli have been expressed. Interest in the work of the talented poet began during the life of Sheikh Suhayli. His work was highly appreciated by literary people in his time. Alisher Navoi put Shaykhim Suhayli on the same line as the great representatives of Eastern classical poetry, such as Shaykh Muslihiddin Sa'di, Amir Khusrav Dehlavi, Salman Sovaji, Kamal Khojandi.

The article discusses the poetry, moral qualities and social activities of the talented poet Shaykhimbek Suhayli, who wrote in Persian and Turkish in the second half of the 15th century. Attention is paid to Alisher Navoi's human and creative relations with Shaikhimbek Suhaili. Majolisun-nafois, the preface of the great thinker's book "Badoyi'ul-bidoya", the epic "Layli and Majnun", "Sokinoma" in the book "Favoyidul-kibar" of the great thinker are rare sources for studying the personality and spiritual heritage of Shaykhimbek Suhaili is justified in the article.

Key words: 15th century, Herat, Khurasan, Husayn Boykara, Alisher Navoi, Abdurrahman Jami, Suhayli, poetry, poet, sealer, minister, "Badayi'ul-bidoya", "Khamsatul-mutahayirin", "Favoyidul-kibar", "Sokinoma", "Layli and Majnun", "Mahbubul-Qulub", Saadi Shirozi, "Boston", "Gulistan", Khusrav Dehlavi, Salman Sovaji, Kamal Isfahani, Khoja Kamal, XII century, Babur, "Baburnama", Jalaluddin Rumi, yori aziz, farsiydisor, Turkishior, shukr, zuhd, zahid, tasbih, tashbih, metaphor, love, lover, chapter, rebuke.

Kirish.

Shayximbek Suhayliy XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biridir. XV asrning ikkinchi yarmi adabiyotida Shayximbek Suhayliyning o'ziga xos o'rni bor. U zullisonayn shoir sifatida o'zbek va fors-tojik adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan.

“Shayxim Suhayliy ijodini o'rganish, uning fors-tojik va o'zbek adabiyoti tarixi taraqqiyotida tutgan o'rni belgilashda Alisher Navoiyning o'lmas asarlari alohida ahamiyat kasb etadi”, – deb yozadi filologiya fanlari doktori Rahim Vohidov [11, 34-35]. Ustoz olim haq. Hazrat Alisher Navoiy “Badoyi'ul-bidoya” devoni debochasida, “Layli va Majnun” dostonida, “Majolisun-nafois” tazkirasida, “Xamsatul-mutahayirin” manoqibida, “Favoyidul-kibar” devonidagi “Soqiynoma”ning yigirma ikkinchi qismida, “Munshaot” tarkibiga kirgan maktublarning birida Shayx Ahmad Suhayliy she'riyati va shaxsiyati haqida g'oyatda muhim fikrlarni aytgan. “Tatabbu'i yori aziz”, “Tatabbu'i yori aziz Suhayliy” sarlavhalari ostida Shayximbek Suhayliy g'azallariga tatabbu'lar bog'lagan.

Asosiy qism.

Ma'lumki, Alisher Navoiy Husayn Boyqaro taxtga chiqqanidan keyin uning topshirig'i bilan o'zining birinchi rasmiy devoni “Badoyi'ul-bidoya” (“Badiylikning boshlanishi”)ni tartib beradi. O'zbek adabiyotida she'riy devonlarga muqaddima tarzida yoziladigan nasriy debochalarning vujudga kelishi ana shu devondan boshlandi. Ustoz olim A. Hayitmetov ifodasi bilan aytganda, o'zbek adabiy-tanqidiy qarashlarini ifodalovchi shakllardan biri hisoblangan debochada buyuk mutafakkir ustozlari va zamondosh shoirlar ijodiga bo'lgan munosabatini xolisona, ochiq va oydin aks ettirgan. Ayni ta'kid Shayxim Suhayliy ijodiga ham daxldordir. “Badoyi'ul-bidoya” debochasidan Shayx Ahmad Suhayliy haqida o'qiyimiz: “...forsiydisor va turkiyshior yigitlar sarxayli, yori aziz...” [13, 14-15].

U yoki bu shoir she'riyati bilan muntazam qizib, uni kuzatib bormasdan turib, uning ijodi haqida bunday ixcham va qat'iy xulosani aytish imkondan tashqaridir. Alisher Navoiy do'sti Shayximbek Suhayliyning deyarli har bir asarini sinchiklab o'qib borgan. Shuning uchun buyuk adibning zullisonayn shoir Shayxim Suhayliy ijodiga bergan baholari, mulohaza va fikrlari faqat “Badoyi'ul-bidoya” debochasida emas, “Majolisun-nafois”, “Xamsa”, “Xamsatul-mutahayirin”, “Munshaot” kabi ko'pgina asarlarida ham o'z ifodasini topgan. “Badoyi'ul – bidoya” debochasidan keltirilgan bor-yo'g'i sakkiz so'zdan iborat ixcham iqtibos o'quvchida quyidagi masalalar yuzasidan aniq tasavvur hosil qiladi:

1. Shayx Ahmad Suhayliy Hirot adabiy muhitining sarvari Hazrat Alisher Navoiy bilan g'oyat darajada yaqin insoniy va ijodiy munosabatda bo'lgan. Ayni haqiqat “Badoyi'ul-bidoya” debochasidan ko'chirilgan iqtibosda har biri ikki hijodan tarkib topgan ikki so'z vositasida mohirona ifoda etilgan: **“yori aziz”**. Alisher Navoiy ushbu ixcham ifodani shunchalik chin ixlos va e'tiqod bilan aytganlarki, ulug' mutafakkirning Shayxim Suhayliy nomi tilga olingan barcha asarlaridagi mulohazalarini muhokama yuritilayotgan ifoda ichdan nurlantirib turadi.

2. Shayximbek Suhaylining iste'dodli zullisonayn shoir ekanligi, ikki tilda (“forsiydisor va turkiyshior”) tarxi toza she'rlar yozganligi maxsus ta'kidlangan.

3. Suhayliyning Hirot adabiy muhitida tutgan o‘rni, o‘z zamonasidagi shoirlarning birinchisi, eng sarasi (“sarxayli”) ekanligi aniq ko‘rsatilgan.

4. “Badoyi’ul-bidoya” devoni tuzilgan vaqtda “yori aziz”ning umrning ayni yigitlik faslida (25-30 yosh oralig‘ida) (“yigitlar sarxayli”) bo‘lganligiga ishora qilingan.

Tahlil qilingan ixcham ifoda “Badoyi’ul-bidoya” debochasida Shayximbek Suhayliy ta’rifida bitilgan quyidagi jumla tarkibidan olindi. Ahmiyatiga ko‘ra, o‘sha jumlaning to‘liq ko‘chiramiz: “Va g‘aroyibroq bukim, g‘aroyibi maoniy iktisobi uchun g‘arobat iqlimlarida tab’ sayyohini g‘urbatg‘a solg‘on forsiydisor va turkiyshior yigitlar sarxayli yori aziz Suhayliy doma tavfiqahim, forsiy ash‘or bahorida fayz sahobidin yoqqan maoniy yomg‘urining har qatrasini rishtasig‘a sho‘xtab’ abkori barmog‘lari uchi bila yuz girih tugar va turkiy abyot maydonida azimat bodpoyin po‘yag‘a solsa, yuz yilg‘i o‘lgan daqoyiq parivashlarining silsilayi zulfidin chobukluq zamon shohsuvori sinoni no‘gi bila yuz zirih ko‘tarur” [13,14-15]. Hazrat Alisher Navoiy tafakkurining hayratlanarli qudrati bilan “Badoyi’ul-bidoya” debochasidan keltirilgan nasriy matn g‘oyat darajada yuksak g‘oyaviy-badiiy saviyada bitilgan. Jumla ibtidosida yetakchi muddao ifodasi uchun xizmat qiluvchi “g‘aroyib” so‘zi orqali bir yo‘la uch san‘at imkoniyatlari mohirona uyg‘unlashitirilgan:

1. Tasdir va takrir san‘ati. Jumla boshidagi so‘z “g‘aroyib” jumlaning keyingi bo‘lakchalarida ham bejirim takrorlanib, o‘zidan keyingi so‘zlar bilan nafis bog‘langan hamda o‘zining nozik ma‘no qirralarini namoyon qilgan.

2. Istiora san‘ati. “G‘arobat iqlimlari” bilan boshlangan istiora san‘ati jumla intihosiga qadar davom etadi. Istioraning biri biri bilan mustahkam bog‘langan quyma zanjiri ilmiy-badiiy ifodaning o‘z va majoziy ma‘nolarini butun ko‘lami bilan o‘quvchi tafakkurida kuchli hamda ta’sirchan tarzda jilolantiradi:” tab’ sayyohi”, “ash‘or bahori”, “fayz sahobi”, “maoniy yomg‘uri”, “qatra rishtasi”, “tab’ abkori barmog‘lari”, “abyot maydoni”, “azimat bodpoyi”, “daqoyiq parivashlari”, “ silsilayi zulfi”, “zamon shohsuvori sinoni no‘gi”.

Mazkur istioralar vositasida Shayximbek Suhayliyning zullisonayn shoir sifatidagi iste’dodi, forsiy va turkiy she’riyat rivojiga qo‘shgan hissasi mufassal hamda komil ishonch bilan asoslab berilgan.

“Boburnoma”da XV asrning ikkinchi yarmi Hirot adabiy va madaniy muhiti haqida: “Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiriy shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg‘ullug‘u bor edi, himmati va g‘arazi ul edikim, ul ishni kamolg‘a tegurgay” [8, 160], – deb yozgan Zahiriddin Muhammad Bobur birinchi bo‘lib Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy nomini tilga oladi:

“Mulloning (Nuriddin Abdurahmon Jomiyning - Sh.H. Sh.N.) kamolot darajasi shunday oliydiki, uni ta’riflashga ehtiyoj yo‘q” [8, 160], – deya ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy “Majolisun-nafois”ning uchinchi majlisini Nuriddin Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan maqola bilan boshlab, Shayxim Suhayliyga atalgan fiqra bilan davom ettiradilar. “Majolisun-nafois” uchinchi majlisining Mavlono Jomiy zikri bilan boshlanib, Shayxim Suhayliy bilan davom ettirilishi, Alisher Navoiy zamonasining Mavlono Sayfiy, Mavlono Osafiy, Mavlono Binoiy, Mavlono Olim, Mavlono Hasanshoh, Mavlono Muzhir, Darvesh Xusomiy, Mavlono Shavqiy, Mavlono Ziyoy, Mavlono Xalaf, Mavlono Mahfiy, Mavlono Nargis, Mavlono Solimiy va boshqa o‘nlab namoyandalari, zo‘r donishmandlari, fozilu ulamolari zikrining Suhayliy zikridan keyin kelishi uning Xuroson va Movarounnahr adabiy muhitidagi ulug‘ maqomi va oliy obro‘sig‘a rad qilib bo‘lmas dalildir.

“Majoliun-nafois”ning uchichni majlisidan o‘qiymiz: “Amir Shayxim Suhayliy – Xuroson mulkining mutaayyin elidindurur. Kichik yoshidin tab’ osori va zihin namudori andin ko‘p zohir va hamida axloq va pisandida maosh atvoridin bohir erdi” [17, 71].

Shayxim Suhayliy Xuroson mamlakatining asli toza, qutlug‘ xilqatli oilasida tug‘ilib, voyaga yetganligini ulug‘ Navoiy birgina so‘z – “mutaayyin” (taniqli) orqali o‘quvchiga aniq va tiniq yetkazgan. Manbalarning guvohligiga ko‘ra, Shayx Ahmadning ota-bobolari temuriylar saroyida xizmat qilgan. Xususan, temuriy hukmdor Shohruh Mirzo davrida (1409-1447) ular o‘z o‘rni va nufuziga ega bo‘lgan.

Alisher Navoiy talqinicha, inson tabiatidagi aqliy kamolot va axloqiy barkamollikning tayanch omillaridan biri “tab’ osori va zihin (zehn) namudori”dir. Bunday insoniy kamolot negizi yoshlikdan shakllanadi. Va shunday nozik tab’ va zehn sohibi bo’lgan inson bolalikdan o’ziga xos idrokka ega bo’lib, yaxshini yomondan, oqni qoradan ajratadi. Kichik yoshdan uning nafs tarbiya topib, yaxshi ishlarni qilishga odat qiladi. “Majolisun-nafois”dan ko’chirilgan birinchi jumlada Alisher Navoiy Shayx Ahmadning javhari qobil ekanligiga e’tiborni tortgan bo’lsalar, ikkinchi jumlada uning noshoyista xulqlardan mutlaqo saqlanib, go’zal xulqlarga odatlanib voyaga yetgani, hamida axloq sohibi ekanligiga o’quvchi diqqatini qaratadilar.

Amir Shayxim Suhayliy Abulqosim Boburdan keyin Xuroson taxtiga ega bo’lgan Abu Said Mirzo xizmatiga kirgan. Shu davrdan boshlab uning yozgan asarlari, she’rlari xalq orasida shuhrat taratgan, iste’dodli shoir sifatida nomi tilga olina boshlagan. “Majolisun-nafois”dan o’qiymiz: “Abu Said Mirzo xizmatiga tushub, maxsus mulozim bo’ldi va ash’ori el orasida shuhrat tutdi” [17, 71].

Shayx Ahmad Suhayliyning qachondan boshlab Sulton Husayn Boyqaro saroyida ishlay boshlagani haqida “Majolisun-nafois” tarixiy hujjat sifatida aniq ma’lumot beradi: “... va holo yigirma yildin ortuqroqdurkim, Sulton Sohibqiron mulozimatidadur” [17, 71]. Ma’lumki, Alisher Navoiy “Majolisun-nafois” tazkirasini 1491-yilda (hijriy 896) yozib tugatgan. Ana shu dalildan kelib chiqadigan bo’lsak, Shayximbek Suhayliy Sulton Husayn Boyqaro hukmdorligining avvalidan (1469-yildan) boshlab shoh saroyida mas’ul lavozimda xizmat qila boshlagan. U Sulton Husaynning markazlashgan davlatni asoslashi hamda Xuroson davlatida fan, adabiyot, san’atning ravnaqiga ijobiy ta’sir ko’rsatgan. Alisher Navoiy va Shayxim Suhayliy kabi zamonning peshqadam insonlari badiiy ijod bilan birga Sulton Husayn Boyqaro saltanatida ham xizmat qilganlar. Shayxim Suhayliy xalq va saroy doirasidagi arboblardan tan olgan ijodkor va amaldor edi. U Sulton Husayn Boyqaro podshosi bo’lgan Xuroson davlatida muhrdor, vazir mansablarida faoliyat ko’rsatgan. O’z vazifasini tadbirkorlik, yuksak idrok bilan boshqargan. Yurt va xalq farovonligi bilan aloqador ko’lamdor masalalarning yechimini oqillik bilan topa olgan. “Majolisun-nafois”dan o’qiymiz: “... rafe’ munosib va a’lo marotibg’a musharrafdur; andoqkim, mulku mol, balki saltanatning barcha maslahat va ahvolig’a mushorunilayh va mo’tamaddun-alayh va amorat zayluchasida sokin va taqarrub masnadida mutamakkindur...” [17, 71]. Alisher Navoiy Shayx Ahmad Suhayliyning o’z zimmasidagi mas’uliyatli vazifalarni maromiga yetkazib bajarganligini sifatlash (“rafi’ munosib”, “a’lo marotib”), tazmini muzdavaj (munosib – marotib), istiora (“amorat zayluchasi”, ya’ni amirlik gilamchasi), musajja’ (sokin-mutamakkin) tasviriy ifodalari imkoniyatlaridan mohirona foydalanib, san’atkorona aks ettirgan.

Sulton Husayn Boyqaro saroyining e’tiborli amirlaridan biri sifatida obro’-e’tibor qozongan Shayxim Suhayliy o’z or-nomusini, g’ururini qattiq turib himoya qilgan. Shoh saroyida yuksak mansablarda faoliyat ko’rsatar ekan, poklikka zarracha gard yuqtirmagan. Shayxim Suhayliy shaxsiyatiga xos ayni axloqiy go’zallikni Alisher Navoiy quyidagi ixcham, saj’li jumlada o’quvchi e’tiboriga havola qiladi: “... hech namuloyim amrg’a mansub va noshoyista aybg’a mat’un va ma’yub emas” [17, 71]. Zakovatli, pok va marhamatli davlat arbobining amaldorlik nufuzi bilan birga shoirlik shuhrati el-yurt orasida barobar dovrug taratadi: “...bu davlatqa andoqki intizomi holi biyik bo’ldi, nazmi ahvoli dag’i avj tutti” [17, 71].

“Majolisun-nafois” tazkisasi muallifi dastlab Shayximbek Suhayliy ijodidan namuna sifatida “Iydiya” qasidasining matla’ini keltiradi:

Shukr, ey dilki, digar bor ba sad zebu jamol
Gardani shohidi iyd ast dar og’ushi hilol [17, 71].

Mazmuni:

Shukr, ey ko’ngil, yana yuz bezak va go’zallik bilan bayram go’zalining gardani yangi oy og’ushiga kirdi (Suyima G’aniyeva tarjimasida).

Shukr qilishga da’vat Qur’oni karimda keng o’rin tutadi. Jumladan, 31-suraning 12-oyati karimasida Alloh taolo Luqmoni hakimga qarata shunday deydi: “Allohga shukr qilgin! Kimki shukr qilsa, faqat o’zi uchun shukr qilur...” [2, 412]. Birortangizning nazaringiz o’zingizdan badavlatroq hamda omadliroq odamga tushganda o’zingizdan kambag’alroq va omadsizroq odamga ham bir nazar tashlab qo’yingiz” [9, 214] hadisi asosida ham iymonning bir qirrasida – shukr turadi. U “Qobusnoma”

sahifasiga quyidagicha muhrlangan: “Hol-ahvoli sendan yaxshiroq bo‘lgan kishilarga qaramag‘il, holi ahvoli sendan yomonroq bo‘lgan kishilarga qarag‘il” [12, 21]. “Mahbubul-qulub” xotimasida berilgan 1-tanbih g‘oyaviy jihatdan ikki yo‘nalishga ega. Uning birinchi qismi ko‘chirganimiz hikmatlarning mufassal hayotiy sharhidan iboratdir: “Kavshsizlikdan malul bo‘lmag‘il, oyoqsizlarga boqib shukr qil. Dastor yirtug‘lug‘idin g‘am yema, boshi yorug‘larga boqib, Tengri hamdidin o‘zga dema. Tanpo‘shung nodurust bo‘lsa, tan durustlig‘ingga shokir bo‘l, iching qutig‘a g‘izo topmasang, ich og‘rining yo‘qig‘a shukr qil. Kisangda agar diram yo‘q, ko‘nglungda kisabur g‘ami yo‘q... Agar oting yo‘qtur, arpa g‘amin yemassan va agar qulung yo‘qtur, kishi quli ham emassan” [3, 76b-77a]. Alisher Navoiy shunday yo‘nalishdagi talqinni davom ettiradi. Hadisda va Kaykovus hikmatida shukrga da‘vat birmuncha umumiy yo‘sinda beriladi. Ko‘chirganimiz tanbihda esa shukr qilishga da‘vat ochiq-oydin aks etgan. Har bir jumlada “shukr”ga urg‘u berish orqali ma‘no va ta‘sirchanlik oshirib borilgan. Badiiy dalillarning hayotiyliigi, chuqur va puxta asoslanganligi bilan “Mahbubul-qulub” “Xotima”sidagi ushbu tanbih “Bo‘ston”ning “Shukr va omonlik haqida”gi sakkizinchi bobini eslatadi. Shayx Sa‘diy ona qornidayoq go‘dakning rizq bilan ta‘minlanganligi, u yorug‘ dunyoga kelgach, onaning ko‘kraklari uni qondirish uchun buloqdek oqishi haqida so‘zlab, ona pandiga quloq solmagan yigit hikoyatini keltiradi va ona tilidan:

Shukr aylagilki, ko‘zungdir ochuq,

Shukur etmasang ikki ko‘zung yumuq – deydi [21, 118].

Bobning ikkinchi hikoyatida otdan yiqilib bo‘yni taniga kirib ketgan shahzoda o‘zini o‘limdan saqlab qolgan dono tabibni unutgani uchun yana tabib tomonidan boshu bo‘yni tanasiga botirilgani so‘zlanadi. Hikoyat xotimasida kishi yomon kun boshiga kelmasdan, yaxshi kun qadrini bilmasligi; g‘aribga sovuq qishning ta‘sirini badavlat kishi his qilmasligi; qo‘l-oyog‘i chaqqon – yurolmasning, tashna qolmagan – suvning, tani xasta bo‘lmagan sog‘likning qadrini bilmasligi ta‘kidlanadi. Navbatdagi hikoyatda izg‘irin, qoru yomg‘ir ostida qolgan saroy soqchisiga ko‘zi tushib qolgan podsho Tug‘ral rahmi kelib, unga xizmatkori orqali to‘n yuborishni va‘da qiladi. Saroyiga kirib go‘zal kanizakka ko‘zi tushgan podsho soqchini unutadi. Shayx Sa‘diy hikoyatga yakun yasar ekan, qissadan hissa qabilida manzilga yetgan karvon – cho‘lda qolganning, yosh yigitlar – safda qarilar borligining, otliq – yayovning, qorni to‘qlar – qorni ochlarning holin bilmasligini uqtiradi.

Sakkizinchi bobdagi boshqa hikoyatlarda ham turmushning turli qirralari badiiy mushohadaga tortilib, xuddi shunday tasvir davom ettiriladi.

Shayx Sa‘diy ayni bir hayotiy hodisa yoki holatning musbat va manfiy tomonlarini (yaxshi kun-yomon kun, boy-g‘arib, sog‘-xasta, yosh-qari, otliq-yayov...) badiiy tasvir ko‘zgisida namoyish qilish bilan shukrga da‘vat qiladi. Alisher Navoiy esa inson turmushida yuz bergan biror harakat, voqeaga undan ayanchliroq bir holatni (kavushsizlikka-oyoqsizlikni, salla yirtiqligiga-bosh yoriqligini...) va salbiy vaziyat sanalib, noshukrlikka olib borishi mumkin bo‘lgan yo‘qlikning ijobiy tomonini ochib ko‘rsatish (cho‘ntagida puli bo‘lmagan-kissavur tashvishidan ozod, oti yo‘qda – arpa topish g‘ami yo‘q) bilan shukrga da‘vat etadi. “Bo‘ston”da badiiy g‘oya (shukr) ifodasida ko‘proq hikoyatlarga tayanilgani uchun talqin voqeiy tus olib, badiiy to‘qima va ba‘zan kuchli hissiy tasvirga moyillik seziladi. Xususan, shartli tasvir ikkinchi hikoyatda yorqin namoyon bo‘lgan. “Mahbubul-qulub” “Xotima”sidagi tanbihda esa shartli tasvirga o‘rin berilmagan va fikrlar ixcham bayon qilingan. “Bo‘ston”ning “Shukr va omonlik haqida”gi bobida asar badiiyatini ta‘minlashda hikoyatlar asosiy omil vazifasini ado etadi. Navoiy pandomasining xotimaviy tanbihida esa har bir jumla yuksak badiiy shaklda ifodalangan.

XV asrning komil musulmoni Shayx Ahmad Suhayliy o‘z qasidasini iymonning tayanch ustuni “Shukr” bilan boshlagan. “Iydiya” qasidasining matla‘ida yuz go‘zallik bilan ziynatlangan hayit bayramiga yetkazganligi uchun “Osmonlar va Yerni O‘z hifzu himoyatida saqlab turgan, eng yuksak va buyuk” (“Baqara” surasi, 255-oyat) Parvardigoriga shukrona aytgan.

Mumtoz she‘riyatda manmanlik, takabburlik, hasad, hirsu havo kabi salbiy xislatlardan mutlaqo poklangan, ilohiyot olamining go‘zalliklaridan bahramand, musaffo ruh sohiblariga nisbatan “ko‘ngli siniq” ifodasi qo‘llaniladi. “Majolisun-nafois”da Suhayliy ijodidan namuna sifatida keltirilgan g‘azal matla‘ida : “Ko‘ngli siniq, holi parishon oshiqni o‘ldirma. Qanoti singan qushga jafu toshini nega otasan?” deydi, Suhayliyning lirik qahramoni:

Dil, chu shikasta makush oshiqi xasta holro,
chi mezani murg'i shikasta bolro [17, 72].

Sangi sitam

Baytning ikkinchi misrasida shoir tashbih va istiora (“jafо toshi”) san’atlaridan mohirona foydalangan. Ko’ngli siniq oshiqni qanoti singan qushga o’xshatgan. Haqiqiy oshiqning ko’ngli siniq, holi parishon, yuragi biryon ekanligi istiora va tashbih san’atlari ko’zгusida g’oyat tiniq aks etgan.

“Majolisun-nafois”da Shayx Ahmad Suhayliyning tojik-fors tilida yozgan yana bir g’azalining matla’i keltirilgan:

Har zamonam qomatash dar nolai zor ovarad,
Tarsam in naxli balo devonagi bor ovarad [17, 72].

Mazmuni:

Hamisha qomating tufayli nolayu zor chekaman. (Bu) balo daraxti devonalik mevasini bermasa edi, deb qo’rqaman (Suyima G’aniyeva tarjimasida).

Mumtoz she’riyatda ma’shuqaning xushbichim, sarvmisol qomati shavqida o’hu fig’on chekkan oshiq timsoli talqini ko’p kuzatiladi. Suhayliyning lirik qahramoni ma’shuqaning go’zal qomati tufayli o’ziga qancha azob, xorligu xo’rliklar yuzlansa, qabul qilishga, bardosh berishga tayyor. Ammo o’sha daraxt (qomat) oqibat devonalik mevasini berishidan, ya’ni ishq o’zini (oshiqni) devona qilib qo’yishidan qo’rqadi. Suhayliy baytning ikkinchi misrasida istiora san’atini (“naxli balo” – balo daraxti, “devonagi bor” – devonalik mevasi) mohirona qo’llab, nozik, ta’sirchan tasvir yaratgan.

Arab va ajam adabiyotida Layli va Majnun nomi bilan bog’liq o’nlab dostonlar yaratilgan. Islom mintaqa madaniyati hududidagi barcha adabiyotlarda unga murojaat qilingan. Shayx Ahmad Suhayliy ham ushbu an’anaviy mavzuda doston yozgan. Suhayliyning Sharqda mashhur an’anaviy mazmun asosida yaratgan “Layli va Majnun”i o’zining g’oyaviy-badiiy yuksakligi bilan Alisher Navoiy diqqatini o’ziga tortadi. Ulug’ mutafakkir shoirlar haqidagi tazkirasida Shayx Ahmad Suhayliy “Layli va Majnun”idan namuna sifatida bir bayt keltiradi:

Go’yi zanaxash zi hol gashta,
Monandai sebi sol gashta [17, 72].

Mazmuni:

Holdan tolganligidan iyagining aylanasi bulturgi olmaga o’xshab qolgan edi.

Alisher Navoiy mazkur baytni muallif Laylining xastaligi ta’rifida bitganligini maxsus ta’kidlaydilar. Barcha “Layli va Majnun”larda talqin qilingani kabi tabiiyki, Suhayliy dostonida qalamga olingan Layli ham siyratan qancha go’zal bo’lsa, suvratan ham shuncha benazir, “husnu jamolda dilpazir” (Navoiy). Uzoq davom etgan bemorlik, og’ir xastalik ham uning nafosati va latofatiga zarracha nuqson yetkaza olmagan. Atirgullilar oilasiga mansub ko’p yillik olma daraxtining mevasi g’oyatda xushta’m, shu bilan birga diltortar va ko’rkam, naqshinkor va rangdor. Suhayliy talqinicha, xastalik Laylini shunchalik holdan toydirganki, darmonsizlantirib, kuchsizlantirib, holsizlantirib qo’yganki, uning iyagining aylanasi bulturgi olmaga o’xshab qolgan.

“Majolisun-nafois”da Shayx Ahmad Suhayliyning o’zbek tilidagi ijodidan bir g’azal matla’i namuna sifatida keltirilgan:

Zuhd eli tasbih deb hayron qolur avbosh aro,
Rishtai jismimni ko’rsa qatra-qatra yosh aro [17, 72].

Zuhd va zohid – mumtoz adabiyotning doimiy yo’ldoshi. Shayxim Suhayliy talqinicha, zohid oshiqning jon ipiga tizilgan shashqator ko’z yoshlarini tasbih deb xayol qiladi. U o’zining qo’lidagi tasbih donalari bilan oshiqning qatra-qatra ko’z yoshlari orasida hamda tasbih donalari tortilgan ip bilan oshiq jismining rishtasi o’rtasida monandlik ko’rib hayratdan tong qotadi.

Iste’dodli shoir oshiq va zohid talqinida qiyosiy mushohadaning suhayliyona yangi o’zanini kashf qilgan. Zohid agar oddiy ipga tizilgan tasbih donalarini o’girish bilan zikrga mashg’ul bo’lsa, oshiq joni jismidan ajralib chiqib, qatra-qatra tomayotgan dur, qonli ko’z yoshlarini to’kish bilan zikr qiladi, Haq yodi bilan yashaydi. Ishq – oshiq umrining mazmuni. Shuning uchun ham zohid qo’lidan hech qachon qo’ymaydigan tasbih ipi – oshiqning jon ipi, undagi tasbih donalari esa oshiqning ko’z yoshlari timsolida jamol ko’rgazadi. Zohidning nafaqat tasbih o’girishi, balki barcha harakatlari

oshkora, el nazarida amalga oshadi. Ishqu oshiqlik esa namoyishkorlikni yoqtirmaydi. Uning qadri ishq sirini, ishq dardu iztiroblarini pinhon tutish bilan kamol topadi.

“Majolisun-nafois” uchinchi majlisining ikkinchi maqolasini (umumiy ro‘yxatda 149-maqola) yakunlovchi so‘nggi jumlada Alisher Navoiy va Amir Shayxim Suhayliy o‘rtasidagi ruhiy-ma‘naviy uyg‘unlik zaminida vujudga kelgan shaxsiy yaqinlik yorqin ifodasini topgan: “Avvaldin oxirg‘acha faqir bila iltifot va ittihodi ko‘p uchun mundin ortuq ta‘rifin qililsa, o‘zumni ta‘rif ‘ondek bo‘lurdin qo‘rqib, ixtisor qilildi. Oqibati xayr bo‘lsun!” [17, 72].

“Favoyidul-kibar” devonidan o‘rin olgan Alisher Navoiy umrining sarhisobi bo‘lgan “Soqiynoma”da Shayxim Suhayliy iste‘dodli shoir sifatida talqin qilingan. Alisher Navoiy “Soqiynoma”sining yigirma ikkinchi qismi Shayxim Suhayliyga bag‘ishlangan. “Bir insonni boshqa bir insonga tortgan narsa so‘z emas, balki ikkalovida mavjud bo‘lgan ruhiy birlikdan bir parchadir [20, 14]”, – deb yozadi Mavlono Jaloliddin Rumiy. Alisher Navoiy va Shayxim Suhayliy do‘stligi botiniy muvofiqlik negiziga qurilgan. “Soqiynoma”dan o‘qiymiz:

Soqiyo, jomga quy maydin sayl,
Mayi xurshidu oning jomi Suhayl.
Yo‘q Suhayliyki, bo‘yar xoroni,
Ulki gulrang qilur siymoni,
Kim Suhayliy soridir zor ko‘ngul,
Ko‘p tilar suhbatin afgor ko‘ngul [14, 492].

Aslu nasabning pokligi kishiga xotirjamlik bag‘ishlaydi. Nasabi pokiza insonning har tarafdin ko‘ngli to‘q, qalbi sokin, vijdoni farog‘atda bo‘ladi, u hayot so‘qmoqlarida komil ishonch bilan qadam bosadi. Shayx Ahmad Suhayliyning “jahon xalqi aro zoti nafis”, fazl va adab zotining ikki mustahkam ustunidir:

Topmasam o‘zni visoli birla,
No‘sh etay oni xayoli birla.
Ochmasam sham‘i jamoli bila ko‘z,
Xom xayoli bila aytay necha so‘z.
K-ey jahon xalqi aro zoti nafis,
Zotingga fazlu adab ikki anis [14, 492].

Iste‘dodli shoir iymoni komil, yaxshi xulqli bo‘lsagina u o‘z nazmi bilan el ma‘naviyatini boyita oladi. Navoiy talqinicha, Shayxim Suhayliy qalamidan tiriklik suvi ravon oqadigan xuddi shunday go‘zal sifatlar sohibidir:

Durri nazming suyi ul nav‘ ravon,
Ki oqib suftidin obi hayvon.
Sensan ulkim, yana yo‘q sen kibi zot,
Naqdi ma‘ni bila farxunda sifot.

Ulug‘ Navoiyga pinhoniya g‘amu mehnatda hamroz va hamdam, maxfiy, yashirin dardu mashaqqatda damsoz va marham (Navoiy) Shayximbek Suhayliy Hirot adabiy muhitida Sharqning buyuk shoirlari maqomidadir:

Sa‘diyu Xisravu Salomu Kamol,
Kim edi har biri beshibhu misol.
Garchi charx etdi barin mutavori,
Sen alar o‘rnidadursan bori.

Shayx Muslihiddin Sa‘diy Sheroziy (1189-1292) Sharq xalqlari adabiyoti tarixida g‘azalchilikning payg‘ambari sifatida e‘tirof etilgan. Ulug‘ shoirning to‘rtta she‘riy devoni, “Bo‘ston”, “Guliston” pandnomalari bizgacha yetib kelgan. “Guliston” XIV asrdayoq o‘zbek shoiri Sayfi Saroiy tomonidan ona tilimizga erkin va ijodiy tarjima qilingan. Uni XIX asrda Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandasi Muhammadrizo Ogahiy ham o‘zbekchallashtirgan.

Nuriddin Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” (1487) asari Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” asariga javob tarzida yaratilgan. Nazmda yozilgan “Bo‘ston” (1252) hamda nasr va nazm aralash hikoyatlar bayoni usulida bitilgan “Guliston” (1258) uzoq asrlar davomida maktablarda darslik sifatida o‘qitilgan.

Alisher Navoiy “Lisonut-tayr” dostonida o‘zining o‘quvchilik yillarini tasvirlar ekan, maktabda Shayx Muslihiddin Sa‘diyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarini sevib o‘qiganini ta’kidlaydi:

Yodima mundoq kelur bu mojaro
Kim, tufuliyat chog‘i maktab aro.
Emgonurlar chun sabaq ozoridin,
Yo “Kalomulloh”ning takroridin.

Istabon tashxisi xotir ustoz,
Nazm o‘qiturkim ravon bo‘lsun savod.

Nasrdan ba’zi o‘qur ham doston

Bu “Guliston” yang‘lig‘u ul “Bo‘ston” [16, 293].

Shayx Ahmad Suhayliy ta’rifi munosabati bilan Alisher Navoiy tilga olgan ikkinchi ijodkor otobobolari asli Shahrisabzdan bo‘lib, mo‘g‘ullar istilosi davrida Hindistonga borib qolgan ikkinchi xamsanavis, “Matla‘ul-anvor” (“Nurlarning boshlanmasi”), “Shirin va Xusrav”, “Majnun va Layli”, “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”), “Oyinayi Iskandariy” (“Iskandar oynasi”) dostonlarining muallifi Xusrav Dehlaviy(1253-1325)dir.

Alisher Navoiy “Mahbubul-qulub”ning “Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida”gi 16-faslida haqiqat asroriga majoz tariqini mahsul qilgan va ijodi shu uslubga aloqador shoirlar qatorida Shayx Muslihiddin Sa‘diyning “maoniy ahlining nuktapardozi”, Amir Xusrav Dehlaviyning “ishq ahli guruhining pokbozi va pokravi”, deya tavsiflaydi.

Alisher Navoiy Xusrav Dehlaviydan keyin Salmon nomini zikr qilgan. Salmon Sovajiy (1310-1376)ning to‘liq nomi Jaloliddin Xoja Salmon ibni Xoja Alouddin Muhammad bo‘lib, u Sharq she’riyatida ulkan voqea sanalgan mashhur “Qasidai masnu’ ” ijodkoridir. Ustoz olimlarning tadqiqotlaridan nazarga tashlanishicha, muvashshah shaklida yozilgan qasidada Xoja Salmon aruz vaznining bir necha bahrlaridan san’atkorona foydalangan. Shuning uchun ham adabiyot tarixida g‘oyat yuksak g‘oyaviy-badiiy saviyada yozilgan asarlar “Qasidai masnu’ ”ga muqoyasa qilinadi. Salmon Sovajiy o‘z she’riyatidan “Kulliyot” tuzgan. Uning “Jamshid va Xurshid”, “Firoqnoma” dostonlariga o‘n olti ming misrani o‘z ichiga olgan shu “Kulliyot”idan joy berilgan. Alisher Navoiy majoz tariqida ijod qilgan Kamol Isfahoniy, Xoqoniy Shervoniy, Xojuyi Kirmoniy, Mavlono Jaloliddin ibn Ja’far Farohoniy, Xoja Kamol, Avhadiddin Ali ibn Muhammad Anvari, Zahiriddin Nishopuriy, Badeuzzamon Fariduddin ibni Umar ibni Rabe’ Gurjistoniy (Abdulvose’ Jaboliy), Asiruddin Abdulloh Avmoniy, Nosiri Buxoriy, Shamsuddin Muhammad ibni Abdulloh Kotibiy Nishopuriy, Shohiy Sabzavoriy kabi shoirlar qatorida Salmon Sovajiy nomini zikr etgan.

Alisher Navoiy “Soqiynoma”sining Shayximbek Suhayliyga bag‘ishlangan 22-qismida Salmon Sovajiydan keyin Kamol nomi keltirilgan. Mutafakkir shoir mahorati tufayli “Kamol” o‘zidan keyingi misrani yakunlovchi “misol” kalimasi bilan harfi raviyda mosligi va bir xil harf bilan tugallanganligi uchun muqayyad qofiyani hosil qilgan. “Salmon” va “Kamol” so‘zlari tarkibidagi “a” va “o” unlilari, “l” va “m” undoshlarining hamohangligi misraga alohida musiqiylik, joziba bag‘ishlagan.

Xulosa.

Alisher Navoiy o‘z “Soqiynoma”sining Shayximbek Suhayliy tavsifiga bag‘ishlangan qismida “Kamol” nomini tilga olish bilan bir yo‘la “majoz tariqi nazmig‘a g‘olib” ikkita shoirni nazarda tutgan. Bular Kamoluddin Ismoil Isfahoniy va Xoja Kamoldir. Kamol Isfahoniy (1170-1237) g‘azal, qasida, qit‘a, ruboiy, tarkibbandlardan iborat, o‘n ming baytli she’riy devon tuzgan. U o‘z qasidalarida faqat madh aytmagan, zamonasi nosozliklarini, johillik va jaholatni qattiq tanqid qilgan. Kamol Isfahoniyning ijtimoiy, axloqiy-ta’limiy qarashlari qit‘alarida ko‘proq o‘z ifodasini topgan.

Xoja Kamol XII asrda yashab ijod qilgan. U asli buxorolik bo‘lib, keyinchalik Buxorodan Xurosonga kelgan. Sulton Sanjar saroyida xizmat qilgan. Sulton Sanjarning saroy shoiri, mashhur qasidanavis Avhaduddin Anvari ijodidan ta’sirlanib, tarhi toza she’rlar yozgan. O‘z zamonasining

mohir xattoti va musiqachisi bo'lgan. Alisher Navoiy talqinicha, Shayximbek Suhayliy "lafzi jonbaxshidan" dunyoga kelgan "mo'jiza angez" asarlari bilan Shayx Muslihiddin Sa'diy, Xusrav Dehlaviy, Salmon Sovajiy, Kamol Isfahoniy, Hoja Kamol kabi buyuk ijodkorlar o'rnidadir, "beshibhu misol" salaflar maqomidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. (Matn) tarjima va tavsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sano-standard, 2021. – 624 b.
2. Алишер Навоий. Махбубул-кулуб Бухоро санъат музейи хазинасидаги 27780-рақамли қўлёзма. – 121 в.
3. Абдуллаев В. Навоий Самарқандда. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1968. – 136 б.
4. Afsahzod A. Suhayliy shoiri hamasri Jomiy// Maktabi soveti, 1967, №7.
5. Bertel E.E. Navoiy. Moskva-Leningrad, 1948. Str. 33.128.
6. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – 367 b.
7. Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ /Ишонарли тўплам/. 4 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – 528 б.
8. Valixojayev B. Shoirning do'sti. // Sharq yulduzi. 1968, №1.
9. Vohidov R. Suhayliy. Toshkent: Fan, 1976, – 40 b.
10. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Мерос, 1992. –175 б.
11. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 1-jild. – Toshkent: Fan, 1987. – 620 b.
12. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 6-jild. – Toshkent: Fan, 1990. – 548 b.
13. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 9-jild. – Toshkent: Fan, 1992. – 356 b.
14. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 12-жилд. –Тошкент: Фан, 1996. – 326б.
15. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997. – 284 b.
16. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – 304 b.
17. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 15-jild. – Toshkent: Fan, 1999. – 236 b.
18. Rumiy J. Ichindagi ichindadir. Toshkent: Yozuvchi, 1997. – 192 b.
19. Саъдий Шерозий. Бўстон. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1960. – 140 б.
20. Xondamir G'. Makorimul-axloq. – Toshkent: Akadem nashr, 2018. – 368 b.